

REY BREDBERINING “THE MARTIAN CHRONICLES” ASARIDA
TERMINLARNING MORFOLOGIK VA SINTAKTIK YASALISH USULLARI

Usmonova Zarina Habibovna

Buxoro davlat universiteti Ingliz tilshunosligi

kafedrasi katta o‘qituvchisi

Email: z.h.usmonova@buxdu.uz

Nodirabegim Xikmatova

1-kurs magistratura bosqichi


xikmatovanodirabegim@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola Ray Bredberining *The Martian Chronicles* ilmiy-fantastik asarida terminlarning morfologik va sintaktik yasash jarayonlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda Marsning xayoliy voqeligi, texnologik tushunchalari hamda ijtimoiy-madaniy hodisalarini ifodalashda qo‘llaniladigan yangi terminlar va terminologik birliklarning yaratilish jarayonlari tahlil qilinadi. Morfologik usullar, xususan so‘z qo‘shish (kompaundlash), affiksatsiya va derivatsiya yordamida so‘z yasash, shuningdek sintaktik usullar — so‘z birikmalari, terminologik iboralar va ko‘p komponentli konstruksiyalar alohida e‘tiborga olinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Bredberi tomonidan qo‘llanilgan terminologiyaning nominativ vazifasi faqat nomlash bilan cheklanib qolmaydi. Olingan natijalar lingvistik ijodkorlik va ilmiy tasavvur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yoritib beradi hamda xayoliy terminlarning ingliz tili lug‘at boyligini kengaytirishi va ilmiy-fantastik nutqning ifodaviy imkoniyatlarini oshirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar. Ilmiy-fantastik terminologiya, termin yasalishi, morfologik usullar, sintaktik usullar, Rey Bredberi, *The Martian Chronicles*, xayoliy terminlar, lingvistik ijodkorlik, ingliz tili leksikologiyasi.

Abstract. The thesis explores the morphological and syntactic processes of creating the terms in the science fiction writing of *The Martian Chronicles* by Ray Bradbury. The research will examine the process of the production of new terms and terminological units to describe fictional realities, technological concepts, and sociocultural phenomena of Mars. The morphological processes, like compounding, affixation and word formation with the help of derivation, and the syntactic ones, like word combinations, terminological phrases and multi-component constructions are given special consideration. The study has established that the nomenative role of terminologies used by Bradbury is not limited to that role. The results emphasize the correlation between linguistic creativeness and scientific imagination revealing that fictional terms enrich the English vocabulary and give additional ability to science fiction speech.

Keywords. Science fiction terminology, term formation, morphological methods, syntactic methods, Ray Bradbury, *The Martian Chronicles*, fictional terms, linguistic creativity, English lexicology.



Ilmiy-fantastik adabiyot xayoliy olamlar, kelajak texnologiyalari va noma'lum ijtimoiy voqeliklarni tasvirlashda maxsus leksikaning keng qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan terminologiya badiiy asarning xayoliy makonini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Rey Bredberining *The Martian Chronicles* asarida terminologik birliklar Mars va kosmik tadqiqotlar bilan bog'liq yangi obyektlar, jarayonlar hamda hodisalarni nomlash uchun qo'llaniladi. Ushbu terminlar o'quvchiga xayoliy voqelikni anglashda yordam beradi hamda asarga ishonchlilik va real tus bag'ishlaydi.

Asarda terminlar yasashining eng muhim yo'llaridan biri morfologik usullar hisoblanadi. Bredberi murakkablashtirish (kompozitsiya) usulidan faol foydalanib, texnologik ixtirolar va kosmosga oid tushunchalarni ifodalovchi yangi leksik birliklarni yaratadi. Rocket ship, space travel, time machine kabi qo'shma so'zlar ikki yoki undan ortiq leksik birliklarning birikishi orqali yagona ma'noli termin hosil bo'lishini yaqqol namoyon etadi. Bu usul murakkab tushunchalarni ixcham va tushunarli shaklda ifodalash imkonini beradi: "The rocket ship stood in the cold night air, ready to leave Earth behind".¹⁸

Affiksatsiya ham asarda keng qo'llaniladigan morfologik usullardan biridir. Prefiks va suffiksalar yordamida kosmik tadqiqotlar va kolonizatsiya jarayonlari bilan bog'liq harakatlar, jarayonlar hamda kasb nomlarini ifodalovchi terminlar hosil qilinadi. Masalan: Colonization, explorer, scientist kabi so'zlar affiksatsiyaning terminologik tizimni boyitishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Asarda colonization so'zi (colonize + -ation) yordamida hosil qilinib, Marsdagi kolonizatsiya jarayonini bildiradi: "Mars was no longer a dream; the process of colonization had begun".¹⁹ Derivatsion jarayonlar esa ilmiy tushunchalar bilan bir qatorda insoniy his-tuyg'ular va psixologik holatlarni ham ifodalovchi mavhum terminlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Morfologik usullar bilan bir qatorda, *The Martian Chronicles* asarida terminlarning sintaktik yo'l bilan yasalishi ham muhim ahamiyatga ega. Ko'plab terminologik birliklar alohida so'zlar emas, balki barqaror so'z birikmalari shaklida namoyon bo'ladi. Martian civilization, space colonization, atomic war kabi iboralar to'liq termin sifatida xizmat qilib, aniq ma'noni ifodalaydi. Bunday birikmalar asarda tasvirlangan obyekt va hodisalarning xususiyatlarini aniqlashtirishga yordam beradi. Ko'p komponentli sintaktik konstruksiyalar murakkab texnologik va ijtimoiy jarayonlarni ifodalashda keng qo'llaniladi. Ushbu konstruksiyalar orqali Marsdagi inson hayoti, Yerliklar va marsliklar madaniyati o'rtasidagi o'zaro munosabatlar batafsil tasvirlanadi. Ayniqsa sifat-ot va ot-ot tipidagi aniqlovchi konstruksiyalar xayoliy olam tasvirining jonliligini oshiradi hamda terminologiyaning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, *The Martian Chronicles* asarida qo'llanilgan terminologiya faqat nominativ vazifa bilan cheklanib qolmaydi. U badiiy va ekspressiv vazifani ham bajarib, texnologik taraqqiyot, kolonizatsiya va axloqiy mas'uliyat kabi muhim mavzularni yoritishga xizmat qiladi. Terminlarning morfologik va sintaktik

¹⁸ Bradbury, R. (1950). *The Martian Chronicles*. New York: Doubleday. P. 12.

¹⁹ Bradbury, R. (1950). *The Martian Chronicles*. New York: Doubleday. p. 27.

yasalish usullari orqali Rey Bredberi lingvistik ijodkorlik va ilmiy tasavvurni uyg'unlashtirib, ingliz tilining lug'at boyligini kengaytiradi hamda ilmiy-fantastik nutqning uslubiy qiymatini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bradbury, R. The Martian Chronicles. New York: Doubleday, 1950. – P. 12-61.
2. Cabré, M. T. Terminology: Theory, Methods, and Applications. Amsterdam: John Benjamins, 1999. – P. 15–42.
3. Sager, J. C. A Practical Course in Terminology Processing. Amsterdam: John Benjamins, 1990. – P. 33–60.
4. Gak, V. G. Yazykovye preobrazovaniya I razvitie terminologicheskikh sistem. Moskva: Nauka, 1998. – P. 18–75.
5. Grinev, S. V. Terminovedenie. Moskva: Akademiya, 2008. – P. 22–50.
6. Kabulov, A. N. Terminologiya asoslari. Toshkent: Fan, 2012. – P. 30–65.
7. Novikov, L. A. Semanticheskaya struktura terminologicheskikh edinit. Moskva: Nauka, 2001. – P. 40–78.
8. Usmonova, Z. H. (2021). The peculiarity of fantastic works (on the example of the works of Ray Bradbury, Isaac Asimov and Stephen King). European Scholar Journal, 2(4), 499-503.
9. Usmonova, Z. H. (2017). Stiven King romanlarining badiiy xususiyati va uning o'zbek ilmiy fantastikasiga ta'siri. Міжнародний науковий журнал Інтернаука, (1 (1)), 170-172.
10. Усмонова, З. Х. (2019). СТИВЕН КИНГ" ТУМАН"(THE FOG). In Язык и культура (pp. 129-135).
11. Usmonova, Z. H., & Fayziyeva, A. A. (2019). Lexical And Grammatical Peculiarities Of Complex Terms In Isaac Asimov's Works. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(5), 257-262.
12. Usmonova, Z. H. (2017). Stiven King fantastikasiga ta'siri. Міжнарод nbuv. gov. ua/cgi-bin/irbis_nbuv/cgiirbis_64.exe WNLOAD= 1&Image_file_name, 3.

